



LAND AND WATER RELATIONS IN TURKESTAN REGION IN THE REPORTS OF F.K. GIRS, SECRET ADVISER TO THE EMPEROR OF RUSSIA

Umidjon Abdumavlyanovich Usarov

Associate Professor, National University of Uzbekistan

PhD in History

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Russian Empire, Turkestan, Governor-General, inspection, commission, community, agriculture, farming, land, property, waqf, water, irrigation, canal, ditch.

Received: 12.06.26

Accepted: 13.06.26

Published: 14.06.26

Abstract: This article analyzes the colonial policy pursued by the Russian Empire in the Turkestan region from the 1860s to the beginning of the 1880s, particularly the land and water relations in the region, on the basis of the activities and the reports on the results of a special inspection commission headed by F.K. Girs, the Privy Councillor of the Russian Emperor, which was established by order of the Russian Emperor to inspect the Turkestan region in response to a special request by Lieutenant General M.G. Chernyayev, who assumed the post of Governor-General of Turkestan in 1882. The article also reveals the subject on the basis of contemporary sources, archival documents, and studies conducted in different periods.

ROSSIYA IMPERATORI MAXFIY MASLAHATCHISI F.K. GIRS HISOBTLARIDA TURKISTON O'LKASIDAGI YER-SUV MUNOSABATLARI

Umidjon Abdumavlyanovich Usarov

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston, general-gubernator, taftish, komissiya, jamoa, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, yer, mulk, vaqf, suv, sug'orish, kanal, ariq.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasida XIX asrning 60–80-yillar boshigacha bo'lgan davrda olib borgan mustamlakachilik siyosati, xususan, o'lkadagi yer-suv munosabatlari 1882-yilda Turkiston general-gubernatori

lovozimiga kelgan general-leytenant M.G. Chernyayevning maxsus so'roviga ko'ra, Rossiya imperatorining topshirig'i bilan Turkiston o'lkasini taftish qilish bo'yicha imperatorning maxfiy maslahatchisi F.K. Girs boshchiligida maxsus taftish komissiyasi faoliyati va uning natijalari haqidagi hisobotlar asosida tahlilga tortilgan. Shuningdek maqolada mavzuni ochib berishda davr manbalari, arxiv xujjatlari va turli davrda olib borilgan tadqiqotlar asosida ochib berilgan.

ЗЕМЕЛЬНО-ВОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ В ОТЧЁТАХ Ф.К. ГИРСА, ТАЙНОГО СОВЕТНИКА ИМПЕРАТОРА РОССИИ

Умиджон Абдумавлянович Усаров

Доцент Национального университета Узбекистана

Доктор философии (PhD) по истории

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Российская империя, Туркестан, генерал-губернатор, инспекция, комиссия, община, сельское хозяйство, земледелие, земля, собственность, вакф, вода, орошение, канал, канава.</p>	<p>Аннотация: В данной статье анализируется колониальная политика Российской империи в Туркестане с 1860-х до начала 1880-х годов, в частности, земельные и водные отношения в регионе, на основе деятельности и отчетов о результатах работы специальной ревизионной комиссии во главе с Ф.К. Гирсом, Тайным советником императора России, созданной по указу императора для ревизии Туркестанского края, по специальному запросу генерал-лейтенанта М.Г. Черняева, занявшего пост генерал-губернатора Туркестана в 1882 году. Статья также раскрывает тему на основе источников периода, архивных документов и исследований, проведенных в разные периоды.</p>
--	---

Kirish. XIX asrning 60–80-yillar boshlarida Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida o'zining mustamlakachilikka asoslangan boshqaruv tizimini o'rnatib, o'lkaning katta qismida o'z tasarrufiga o'tkazishga harakat qilgan. Imperiya hukumati Turkiston o'lkasida dastlab boshqaruv tizimida aniq bir nizom yoki qonunga ega emasligi o'lkadagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi turli muammolarni keltirib chiqargan. Bu davrda o'lkani general-gubernator K.P. Kaufman tomonidan boshqarilib, unga boshqaruvda bir qancha keng vakolatlar berilgan. Shuningdek, o'lka boshlig'i sifatiga general-gubernator K.P. Kaufman faoliyatining ilk

davridanoq mahalliy aholi vakillari hamda ularni qarashlarini bilan ham hisoblashishga majbur bo'lgan.

Muhokama va natijalar. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida o'zining mustamlaka siyosatini yanada mustahkamlash va keyingi davrlarda o'lkada bu boradagi hukmronligini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator taftish komissiyalari faoliyatini tashkil etdi. Bu komissiyalar o'lkaga imperiya boshqaruv tizimi hamda iqtisodiy ahvoli, xususan, yer-suv munosabatlarining holatini bilish maqsadida amalga oshirdi. Jumladan, 1882-yil Turkiston general-gubernatori, general-leytenant M.G. Chernyayevning maxsus so'roviga ko'ra, Rossiya imperatorining topshirig'i bilan Turkiston o'lkasini taftish qilish bo'yicha maxfiy maslahatchisi F.K. Girs boshchiligida maxsus taftish komissiyasi tuzildi. Taftish komissiyasiga sobiq general-gubernator K.P. Kaufman boshqaruvining natijalaridan kelib chiqib o'lkadagi ma'muriy boshqaruv, sud, moliya-iqtisod, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalaridagi muammolarni o'rganish vazifasi topshirildi. Shu maqsadda 1882-yil 20-oktabrda taftish ishlarini olib borish uchun yo'llanma ham topshirildi. To'plangan ma'lumotlar Turkiston o'lkasini boshqarish Nizomining oxirgi variantini ishlab chiqish uchun kerak edi.

Imperiya hukumati tomonidan bundan avvalgi davrdagi tekshiruvlarda olingan ma'lumotlarning kamligi sababli komissiya o'ziga topshirilgan vazifalarni bajarishda ma'lum qiyinchiliklarga duch keldi. Biroq bu vazifalar o'lkada kelajakda moliyaviy va iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda ko'mak berishi aniq, shu sababli ham mazkur taftish komissiyasining mas'uliyati katta edi. Komissiya dastlab o'lkaning iqtisodiy ahvoli bu yerdagi ko'chmanchi va o'troq aholining turmush tarzi bilan bog'liq ekanligini angladi. O'lkani o'rganish uchun esa, savdo, ishlab chiqarish uchun chorvachilik, yer egaligi haqidagi hayotiy tajribadan boshqa manbalar yo'qligi sababli taftish ishlari, avvalo, o'lkada yer egaligi munosabatlari bilan tanishib chiqdi. Bu, tabiiyki, katta mas'uliyatni talab qildi. Mazkur taftish komissiyasi qishloqlarni aylanishi, yer masalalarida muammo chiqqan qishloqlarga borib, yerga oid bo'lgan hujjatlar bilan tanishib, mahalliy aholi bilan suhbatlar o'tkazib vaziyatni avval tushunib olishi, shu tariqa yer mojarolarini xolis hal etishi kerakligini, dehqonlarning yerga egaligining huquqiy asoslarini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini o'rganib chiqishi lozim edi. F.K. Girs boshchiligidagi taftish komissiyasi o'z hisobotida mahalliy qishloqlar va rus qishloqlari o'rtasidagi yer munosabatlarida qiyosiy solishtirish xato bo'lishini ta'kidlagan holda ikki tomonning xo'jaligi yer bilan bog'liq ekanligini anglash lozimligini, o'lkada yer-suv munosabatlarida qur'a tashlash yo'li bilan ish yuritish umuman mumkin emasligini yozadi[3, – C. 314.]. Shuning uchun taftish komissiyasi a'zolari bu ishlarda faqat o'z xulosalarini bermaslik uchun, avvalo, shariat va xorijiy tillarga tarjima qilingan Qur'on oyatlari bilan ham tanishdi.

F.K. Girs rus dehqonlaridan farqli holda o'ziga xos sharoitlarda yashab kelayotgan xalqni ruhan sindirmaslik uchun ma'muriyat bilan kelishgan holda ish yuritish maqsadga muvofiqdir[3, – C. 316.], degan fikrga tayangan mahalliy aholi yer egaligidan ko'ngli to'lib yashayotgan bo'lsa, u holda yer egaligi boshqaruvini o'zgartirishning hojati yo'q [3, – C. 316.], degan xulosaga keldi. Taftish davomida F.K. Girs o'lkada yer egaligining uch turga – hosilga qarab xiroj, yerga qarab tanob soliqlarini to'lovchi “amlok” yerlarga; soliqlardan ozod qilingan yoki yarim ozod qilingan – “mulk” yerlariga; diniy maqsadlarni amalga oshirishga mo'ljallangan “vaqf” yerlariga bo'ldi [4].

Bu vaqtga qadar o'lkani boshqarish uchun ishlab chiqilgan Nizom loyihasida amlok yerlarni doimiy foydalanish uchun mahalliy aholiga berish lozimligi loyihaga kiritilgan bo'lib, bu loyiha 1873-yil Moliya vaziri stats-kotibi N.X. Reytern va Davlat nazorati va Tashqi ishlar vazirligi tomonidan loyiha to'liq va aniq ishlab chiqilmaganligi, bu o'lkada notinch vaziyatni yuzaga keltirishi mumkinligi inobatga olinib, loyiha takror ko'rib chiqish uchun qaytarilgan edi[6]. Shu sababli taftish komissiyasi qo'yilgan vazifalarni to'laqonli bajarish va xato xulosa bermaslik uchun o'lkani aylanib, yer egaligi bilan bog'liq muammolari bor qishloqlarda so'rovlar o'tkazdi. Hujjatlarni tekshirish natijasida komissiya o'z hisobotlarida o'lkadagi mavjud yerlarga egalik qilish qadimdan meros bo'lib kelgan yoki hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan yerlardan iborat bo'lganligini ta'kidladi. Bu yerlarni sovg'a qilish, sotib olish yoki meros bilan qoldirilishi mumkin bo'lgan. Yerlarga jamoaviy egalik qilish holati bo'lmagan. Faqat, suv masalasiga jamoa bo'lib yondashilgan. Har bir yer egasi jamoat bilan kelishgan holda katta ariqlarni tozalash, qarab turish vazifasini bajargan. Katta ariqlardan chiqarilgan kichik ariqlar bilan yerlar sug'orilgan.

Shu tariqa o'lkada yerdan foydalanishning qadimdan an'ana bo'lib kelgan usulidan foydalanilgan. Bu borada komissiya a'zolari “yer munosabatlarida noto'g'ri qaror qabul qilish og'ir oqibatlariga olib kelishi, mahalliy aholining rus hukumatiga bo'lgan ishonchi va sodiqligini pasaytirishi” [3. – C. 314-357] mumkin deb hisoblangan.

F.K. Girs hisobotlarida keltirilgan mulk yerlari, bu – o'lik yerlarni o'zlashtirish bilan barpo qilingan yoki xonlar tortig'i bilan berilgan yerlar ekanligi, bu yerlar ko'proq ijaraga berilishi haqidagi ma'lumotlar ham berildi. Hisobotda yozilishicha, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoga kirib kelgan vaqtda mahalliy aholining qo'lida hujjatlari to'liq bo'lgan mulk yerlari juda kam bo'lgan[4]. Mulk yerlarining ayrimlarida egalik qilish hujjatlari yetarli bo'lmaganlari ham ko'p uchragan.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olgan vaqtda mulk yerlariga homiylik qilmagan. Mulk yerlari egalarining noroziliklari, hujjatlardagi tushunmovchiliklarni tekshirishga

mablag'ning yetarli darajada bo'lmaganligi sababli mulk yerlari egalari amlok yerlari egalari bilan bir qatorda soliqqa tortilgan. Turkiston general-gubernatori K.P. Kaufman mulk yerlari egalari ularning noroziligi yangi hujjat qabul qilingandan so'ng ko'rib chiqilishini aytgan. Bu mulk yer egalari tomonidan katta noroziliklarga sabab bo'lib, o'lkaga yoyilishi ehtimoli bo'lsa-da, mahalliy aholi belgilangan chora-tadbirlarga qattiq norozilik bildirmagan.

Uzoq o'rganishlardan so'ng, shu vaqtga qadar mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda o'lkadagi yer egaligi munosabatlari haqidagi qarashlar va tushunchalarga ega bo'lgan komissiya, o'lkada yer egaligi munosabatlari noto'g'ri hal etilishi bu yerda Rossiya hukumatiga nisbatan ishonchsizlik va tuzatib bo'lmaz vaziyatni yuzaga keltirishi mumkin degan xulosaga keldi.

Taftish komissiyasi o'z ishini davom ettirayotgan vaqtda kelib tushgan arznomalarda ham, asosan, mulk yerlariga tegishli muammolarni hal qilish masalalari bo'lgan. Shuningdek, komissiya "keyingi 14 yil (1867–1881 yillar) davomida davlatga foyda keltirmagan, lekin yer egalari boyib borishiga sharoit yaratgan mulk yerlarini keyinchalik amlok yerlar deb atamoq maqsadga muvofiq" mazmunidagi masalaga harbiy gubernator va uyezd boshliqlarining fikrini bilishni lozim topdi. Harbiy gubernator va uyezd boshliqlari mulk yerlarini tugatish to'g'ri yo'l ekanligi, biroq mulk yer egalari tomonidan mardikor ishlatish holatlari ko'p uchraganligi hamda general-gubernator K.P. Kaufmannning mulk yerlari egalari arizalarini bee'tibor qoldirganligi mahalliy aholining noroziligiga sabab bo'layotgani ma'lum qilingan[5].

Taftish komissiyasi rahbari F.K. Girs o'lkadagi vaqf yerlariga alohida e'tibor qaratadi. O'lkada keng tarqalgan vaqf yerlari Qrimdagi singari bo'lib, F.K. Girs vaqf yerlarini diniy idoralarga sovg'a qilingan yoki ma'lum kishilarga tortiq qilingan mulklarga bo'ladi. Uning hisobotlari ham vaqf yerlarini keng tahlil qilishga qaratildi. Unda yozilishicha, hadya qilingan vaqfdan keladigan foydaning ma'lum qismi ehsonlarga, ma'lum qismi sovg'a qilingan shaxsning avlodlariga tegishli bo'lgan [3. – C. 349.]. Vaqf yerlari xonlar, amirlar tomonidan yoki ma'lum bir kishilar tomonidan berilgan. Xususan, xonlar yoki amirlar o'z mulklari hisobidan ma'lum qismini madrasa, masjid, qabriston va muqaddas ziyoratgohlarga ataganlar yoki ziyoratgohlardagi shayx, xo'ja hamda sayyidlarning avlodlariga atab vaqf qilib bergan. Vaqf qilingan yerlardan tashqari, qishloq, ovul va yaylovlar ham vaqf qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar bor.

Turkistondagi vaqf mulklariga oid hujjatlar bir necha qozilar ishtirokida bir necha nusxada rasmiylashtirilgan. Hujjat (vaqfnoma)larda qaysidir xon, amir tomonidan berilgani yozilgan. Vaqf yerlari chegaralari aniq belgilab ko'rsatilgan bo'lib, qishloq yoki ovullarning ko'rinishi, foydalanish yo'llari ham belgilab berilgan. Bu hujjatlardan tashqari yangi xon yoki amir taxtga

o'tiradigan bo'lsa, yangidan tasdiqnomalar qilib berilgan. Ayrim hollarda vaqf mulklaridan mahrum qilinish holatlari ham uchrab turgan. Bunday vaziyatda xonlar tomonidan asosiy hujjatlar olib qo'yilgan. Bu vaqtda hujjatlar bir necha nusxada bo'lgan. Saroyda vaqf qilingan mulklar rasmiylashtirilmaganligi bois tortib olinayotgan mulklarni musodara qilishda qozilar tomonidan bir necha nusxada tayyorlangan hujjatlarning bittasi berilgan. Shu tariqa vaqfga oid hujjatlar ham yangi xon yoki amir vaqtida yangidan rasmiylashtirib berilgan [3. – C. 314-357].

O'lkadagi vaqf mulklari xonlar, amirlar tomonidan tortiq qilingan mulklar hamda bir kishi nomiga berilgan mulklardan iborat bo'lgan. Vaqf qilingan katta yerlar, yaylovlar mahalliy aholiga foydalanish uchun ijaraga berilgan vaqtda u yerda dehqonchilik qilayotgan kishi faqat dehqonchilik mavsumi tugagan vaqtda uyiga borgan. Boshqa vaqt dalada, o'tovlarda istiqomat qilgan. Ayrim vaqtlarda vaqf qilingan yerlarning o'zida kichik-kichik qishloqlar barpo qilingan.

Turkiston o'lkasida shaxsiy vaqflar juda ko'p bo'lgan. Ozgina bo'lsa ham vaqf mulkidan keladigan mablag'i bo'lmagan birorta masjid yoki maktab bo'lmagan. Vaqf orqali ular mablag' bilan ta'minlab borilgan. Yana bir toifadagi vaqflar bo'lib, ular qabristonlarga yoki muqaddas ziyoratgohlarga ajratilgan mulklar bo'lgan.

Ko'chmanchi aholi yashaydigan yerlar alohida e'tibor talab qilishi hisobotlarda ko'rsatib o'tilgan. Asosan, qirg'izlar istiqomat qiladigan o'lkaning butun dasht yerlarini barcha dasht yerlariga taalluqli bo'lgan Nizomga asosan boshqarilishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan[3. – C. 354.].

Turkistonda sug'orish tizimi o'lkaning iqlimiy sharoitlaridan kelib chiqilgan holda unga asosiy masala sifatida qaralgan. Yog'ingarchiliklarsiz, o'lka yerlari serhosil bo'lmaganligi sababli, bu yerda irrigatsiya tizimi muhim rol o'ynagan. Shu sababli aholi o'rtasida irrigatsiya inshootlari muhim ahamiyat kasb etgan. Bu xususda, N. Dingelshtedt shunday yozadi: "Hech shubha yo'qki, Turkiston o'lkasida suv masalasida vaziyat doimo keskin bo'lgan, kelajakda vaziyatni barqarorlashtirish uchun ma'muriyat jiddiy faoliyat olib borishi, Kavkazda bo'lgani kabi Turkiston o'lkasida ham suv tanqisligi vaziyatning barqaror yoki beqaror bo'lishida muhim rol o'ynaydi" [1. – C. 50.]. Ayni paytda imperiya hukumati O'rta Osiyo yerlarini bosib olgan vaqtda ham bu yerdagi irrigatsiya inshootlariga alohida e'tibor bilan qaradi. Shu sababli viloyat boshqarmalarida irrigatsiya bo'limlari tashkil etilgan.

F.K. Girs irrigatsiya tizimini o'rgangan vaqtda o'lka viloyatlarida, dehqonchilik o'ziga xos tarzda taraqqiy etgan Sirdaryo, Farg'ona va boshqa yerlarda, irrigatsiya tizimlari xaritasini topa olmagan[3. – C. 357.]. Irrigatsiya tizimi o'rganilib, sug'orish tarmoqlari uch guruhga – asosiy ariqlar, ikkinchi darajali ariqlar va har tomonga yoyilib ketgan ariqlar turiga bo'lingan. Asosiy ariqlar tog'dan kelayotgan jilg'alar, daryolar, ba'zi joylarda ko'llar orqali suv olgan. Asosiy

ariqlarni ta'mirlab borish hukumat buyrug'i bilan muntazam, iloji boricha mablag' ajratilmasdan mahalliy aholi yordami – hashar yo'li bilan qarab turilgan. Mahalliy aholi hashar yo'li bilan boshlangan bu ishlarda har bir yer egasi o'zi olib kelgan qo'sh soniga qarab kelajakda suvdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan[7. – C. 101.].

Ikkinchi darajali ariqlar asosiy ariqlardan chiqarilgan bo'lib, qishloqlarga yaqin yerlarda bo'lgan. Uchinchi darajali ariqlar bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri dalaga kiritilgan ariqlar bo'lgan[3. – C. 101.].

O'lkadagi sun'iy sug'orish ishlarini nazoratga olish[2. – C. 48.] hamda o'lkada suvdan foydalanish ishlarini yanada ko'proq tushunish maqsadida taftish komissiyasi yilboshi, ya'ni erta bahorda asosiy ariqlar to'lib oqadigan vaqtda uyezdlarga borib haqiqiy ahvol bilan tanishib chiqqan. Mahalliy aholi va ariq oqsoqollari bilan qilingan suhbatda bu borada muammolar yo'qligi, hukumat irrigatorining ruxsatini kutib o'tirmasdan doimiy suvdan foydalanib kelinayotganligi, hatto ariqlarni ta'mirlash ishlari ham irrigatorlarning aralashuvisiz amalga oshirilayotganligi haqidagi ma'lumotlarni oldilar[3. – C. 357.]. Shunday bo'lsa-da, asosiy ariq yillar davomida amal qilib kelingan odatga ko'ra, "ariq oqsoqoli" tomonidan boshqarilgan. F.K. Girs bu tarmoqlarni o'rganib, ularning imperiya uchun naqadar muhimligini anglagan holda "ariq oqsoqollari" harbiy gubernator tomonidan tayinlanishi, ikkinchi va uchinchi ariqlarni mahalliy aholi tomonidan tayinlangan miroblar boshqarishi lozimligini ko'rsatib o'tgan[3. – C. 357.].

Darhaqiqat, o'lkaning har bir hududida suv masalasida o'zining uslubi bo'lib, bu xususda N. Dingelshedt shunday yozgan: "bular, avvalo, suv o'lchamini aniqlash, yer egalarining o'z yerlari orqali boshqa ekin ekilgan yerlarga suv berishni aniqlashtirish, begona yer va suvlardan foydalanish huquqlarini, suv manbalaridan uzoq-yaqinligiga qarab kanallarga suv kelishini aniqlashtirish, suv hajmi va navbatga qarab shaxsiy yer egalari, jamoat, qishloq yoki shahar vaqflarini aniqlash, suv ko'payib ketganda uni jilovlash yo'llarini, suv hajmiga qarab ekiladigan ekin turlarini aniqlashtirish, suv tanqis bo'lgan vaqtlarda suvdan foydalanish navbatlariga aniqliklar kiritish, suvdan foydalanishda kelib chiqishi mumkin bo'lgan mojarolarni bartaraf etish, bitta kanal yoki daryo suvlaridan foydalanishda qo'shni qishloq yoki yuqori qishloqning foydalanishiga qarshi manfaatlar birligini ta'minlashdan iboratdir[1. – C. 56.]. Shunday bo'lsa-da, F.K. Girs "eski ta'mirlashga muhtoj irrigatsiya inshootlarini yangilashda, to'g'onlar qurishda mahalliy aholi yetarli tajribaga ega emasligini" [3. – C. 357.] ta'kidlab o'tadi. A.I. Shaxnazarov bo'lsa, "o'lkadagi eng sodda usullarga asoslanib qurilgan ba'zi kanallar, xususan, Shahrixonsoy, Ulug'nor, Andijonsoy, Zax, Bo'zsuv, Darg'om va boshqa kanallarning qurilishi va ulardan

foydalanish yo‘llarini ko‘rib, bu inshootlarni qurganlarga beixtiyor hurmating oshadi” [7. – C. 89.] deb yozgan.

Turkiston general-gubernatori K.P. Kaufman boshqaruvda bo‘lgan vaqtda, u tomonidan o‘lka hududlari, xususan, Qurama uyezdi, sobiq Toshkent uyezdi va Toshkent shahri bo‘yicha qo‘llanma ishlab chiqilgan bo‘lib, K.P. Kaufman vafotidan so‘ng, 1888 yil 2 avgustda general-gubernator M.G. Chernyayev unga o‘zgartirishlar kiritadi. Bu qo‘llanmadan o‘lkaning boshqa viloyatlari ham foydalanishi mumkin bo‘lgan. Qo‘llanmadan kelib chiqib, o‘lkaning faqatgina Farg‘ona viloyatida irrigatsiya ishlarining barchasi uyezd boshliqlariga “uyezd xo‘jayini” sifatida topshirish haqida yakuniy qarorga kelgan. Samarqand viloyati bo‘lsa, irrigatsiya ishlarini boshqaruvchi texnik qo‘liga topshirishi lozimligi, Sirdaryo viloyati bo‘lsa, ilm sohasi vakili sifatida irrigatsiya ishlari bo‘yicha texnik qo‘liga va uyezd boshlig‘i qo‘liga topshirishi lozimligi haqida o‘z yakuniy xulosalarini berganlar[1. – C. 64.].

Mahalliy ariqlarni yaxshi bilgan gidrotexnik viloyat boshqarmalarida ham bo‘lishi maqsadga muvofiq deb bilgan[3. – S. 357.]. N.Dingelshtedtning fikricha, bu “musulmon va mahalliy qarashlarni qonuniylashtirish yo‘lidagi kuchli harakat bo‘ldi” [1. – C. 64.]. “Menimcha, – deb davom ettiradi N. Dingelshtedt, – qo‘llanma qonuniy kuchga ega bo‘lmasa-da, amaliyotda suvdan foydalanish va boshqarish masalalarini hal qilishi mumkin” [1. – C. 64.].

Xullas, F.K. Girs boshchiligidagi taftish komissiyasi “o‘lkada mavjud yer egaligi munosabatlarini qonuniy yo‘l bilan tasdiqlash, yerlarni haqiqiy egalariga soliq va yig‘imlardan ozod qilinmagan holda yerni shaxsiy mulk qilib berish” kerakligi haqida xulosa berdi. Bu bilan F.K. Girs komissiyasi bu xulosa o‘lkada “mahalliy sharoit va ehtiyojga mos kelishini, bu bilan yer egaligida ehtiyotkorona munosabatda” bo‘lish mumkinligini asosiy sabab qilib keltirdi[8. – S. 91.]. F.K. Girs boshchiligidagi taftish komissiyasi xulosalari 1884 yil 1–3 mayda bo‘lib o‘tgan komissiya majlisida muhokama qilinganda komissiya a‘zolari o‘rtasida “mahalliy yer egaligi” masalasida turli qarashlar yuzaga kelgan.

Taftish komissiya xulosalarida 1881 yildagi loyihada keltirilgan mahalliy aholidan to‘lov evaziga qaytarib olish to‘g‘risidagi bandi “faqatgina noto‘g‘ri chora bo‘lmasdan, balki siyosiy munosabatlarda jiddiy xavf” ekanligini ta’kidlab o‘tdi[8. – C. 91.]. U Turkistonda yerlarni sotib olish tartibini Rossiya imperiyasi bilan tenglashtirib bo‘lmaydi” [8. – C. 92.], deb xulosa beradi. Bu majlisda general-mayor A.N. Kuropatkin 1881 yildagi loyiha to‘g‘risida o‘z fikrida qoldi. Uning ta’kidlashicha, yerlarni mahalliy aholiga butunlay shaxsiy qilib bermasdan, ma’lum to‘lovlarni to‘lash orqali doimiy foydalanish uchun berish lozim edi. Uzoq tortishuvlardan so‘ng komissiya yerlarni mahalliy aholiga 16 ta ovoz bilan “shaxsiy mulk emas, doimiy foydalanish uchun berish” lozimligi haqida qaror qabul qilgan[8. – C. 92.].

Xulosa. XIX asrning 60–80-yillar boshida Turkiston o'lkasidagi Rossiya imperatori maxfiy maslahatchisi F.K. Girs rahbarligida o'lkada faoliyat olib borgan taftish komissiyalari hisobotlarida o'lkaning siyosiy boshqaruvi, ijtimoy-iqtisodiy masalari bilan birga yer-suv munosabatlariga alohida to'xtalib o'tgan. Jumladan, komissiya hisobotlarida o'lkadagi yer egaligi turlari va mulkchilik munosabatlariga oid ma'lumotlar hamda sug'orish tizimidagi va suvdan foydalanishdagi uchraydigan muammolarning sabablarini o'rganib, imperiya markaziga ularning holati yuzasidan axborot berib turgan.

Shuningdek, bu komissiya imperiya ma'muriyati rasmiy amaldorlarini qiziqtirgan va o'z navbatida, tashkil etilgan komissiyalarning deyarli barchasini qo'rqitib turgan vaqf yer egaligi masalalari mukammal o'rganishga harakat qilindi. Lekin yillar davomida mahalliy aholi amal qilib kelgan va boshqaruvda ham o'z ta'sirini o'tkazgan vaqf yerlarini o'rganish, tahlil qilish, uni imperiya manfaatlariga moslashtirgan holda tadqiq etish doim ham amalga oshavermadi. Shu sababli komissiyalar faoliyatidan qoniqmaslik, boshqaruvni yanada mustahkamlash uchun yer egaligining barcha turlarini mukammal o'rganish imperiya ma'muriyatining asosiy vazifasi bo'lib qolaverdi. Shunday bo'lsa-da, kamchiliklar va aniq ma'lumotlar asosida yaratilgan hisobotlar o'lkani boshqarish Nizomini ishlab chiqishda, yer egaligini imperiya manfaatlariga moslashtirib borishda o'z o'rniga ega bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дингельштедт Н. Опыт изучения ирригации Туркестанского края. Сыр-Дарьинская область. Часть 1. – СПб.: Типогр. Министерства путей сообщения, 1893. – С. 50-64.
2. Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865–1917). – М.: Наука, 1980. – С. 48.
3. Отчет ревизующего, по высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Ф.К. Гирса. – СПб., 1882. – С. 314-357
4. ЎзМА, И-1-фонд, 12-рўйхат, 923-йиғмажилд, 46-орқа-47-варақлар.
5. ЎзМА, И-1-фонд, 12-рўйхат, 923-йиғмажилд, 47-орқа варақ.
6. ЎзМА, И-1-фонд, 12-рўйхат, 923-йиғмажилд, 48-варақ.
7. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – СПб.: Типогр. В.Е. Киршбауна, 1908. – С. 89-101.
8. Экономическое развитие в Средней Азии. – Ташкент, 1962. – С. 91.